



ILMIY USLUBDA YORDAMCHI SO'ZLARNING QO'LLANISHI

Erkinov Dilmurod

Namangan davlat pedagogika instituti magistranti

KIRISH (INTRODUCTION)

Zamonaviy tilshunoslikda funksional yondashuv asosida til birliklarining nutqiy faoliyatda bajaradigan vazifalarini aniqlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tilning uslubiy qatlamlari, xususan, ilmiy uslubning o'ziga xos lisoniy mexanizmlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ilmiy nutqning aniqligi, mantiqiyli va izchilligi nafaqat terminologik tizim yoki grammatik qurilish bilan, balki yordamchi so'zlarning — ko'makchilar, bog'lovchilar va yuklamalarning funksional qo'llanishi orqali ham ta'minlanadi. Mazkur birliklar ilmiy matnning ichki mantiqiy tuzilishini shakllantiruvchi, fikrlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashtiruvchi va matnning kommunikativ yaxlitligini ta'minlovchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida ilmiy uslub ko'proq terminologik, sintaktik va leksik xususiyatlar nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lsa-da, yordamchi so'zlarning aynan ilmiy nutqdagi funksional-uslubiy xususiyatlari alohida tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Holbuki, ilmiy matnda sabab-oqibat munosabatlari, izoh, aniqlashtirish, qarama-qarshilik va mantiqiy bog'liqlikni ifodalashda yordamchi so'zlarning o'rni nihoyatda muhimdir. Masalan, chunki, shuning uchun, ya'ni, demak, biroq, hamda kabi birliklar ilmiy bayonning izchilligini ta'minlash bilan birga, muallif pozitsiyasini aniqlashtiradi va o'quvchining idrok jarayonini tartibga soladi.

Zamonaviy ilmiy nutqning murakkablashuvi, fanlararo integratsiya va raqamli kommunikatsiya sharoitida ilmiy matnning aniq, ixcham va tushunarli bo'lishiga bo'lgan talab kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda yordamchi so'zlarning to'g'ri va me'yoriy qo'llanishi ilmiy matn sifatining muhim ko'rsatkichiga aylanadi. Shu bois ilmiy uslubda yordamchi so'zlarning funksional imkoniyatlarini aniqlash, ularning matn tuzilishidagi o'rni va kommunikativ vazifalarini tahlil qilish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada o'zbek tili ilmiy uslubida qo'llaniladigan yordamchi so'zlarning — ko'makchilar, bog'lovchilar va yuklamalarning funksional-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot ilmiy matnlarda bu birliklarning qanday mantiqiy, izohiy va strukturaviy vazifalarni bajarishini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ilmiy nutqning lingvistik mexanizmlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Yordamchi so'zlar masalasi tilshunoslikda grammatik tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida izohlanib kelinadi. Turli tilshunoslik maktablarida ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning grammatik hamda semantik xususiyatlari keng tadqiq qilingan bo'lsa-da, ularning funksional-uslubiy jihatlari, xususan, ilmiy nutqdagi o'rni alohida tahlil obyekti sifatida kam yoritilgan.



Rus tilshunosligida yordamchi so'zlarning nutqiy vazifalarini o'rganishda V.V.Vinogradov¹⁷, A.A.Shaxmatov¹⁸, N.Yu.Shvedova¹⁹, I.R.Galperin²⁰ kabi olimlarning qarashlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda bog'lovchi va ko'makchilarning matn tuzilishidagi bog'lovchi-mantiqiy vazifalari, yuklamalarning esa muallif munosabatini ifodalovchi birlik sifatidagi xususiyatlari qayd etilgan. Xususan, I.R.Galperin matn lingvistikasi doirasida yordamchi so'zlarning kohesiv va koherentlikni ta'minlovchi vosita ekanini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida yordamchi so'zlarning grammatik tabiati A.G'ulomov, A.Hojiyev, N.Mahmudov, Sh.Safarov, R.Sayfullayeva kabi olimlar asarlarida izchil yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida yordamchi so'zlarning turkumlari, morfologik belgilari va sintaktik vazifalari aniqlangan. Ayniqsa, A.Hojiyevning o'zbek tili grammatikasi bo'yicha ishlari ko'makchi va bog'lovchilarning nutqiy faoliyatdagi o'rnini belgilashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy uslub va uning lisoniy xususiyatlari masalasi S.Karimov²¹, B.Nurmonov²², R.Qo'ng'urov²³, A.Madvaliyev²⁴ kabi tilshunoslar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda ilmiy matnning mantiqiyligi, aniqligi, izchilligi va terminologik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lsa-da, yordamchi so'zlarning aynan ilmiy nutqdagi funksional yuklamasi alohida obyekt sifatida yetarlicha yoritilmagan.

So'nggi yillarda funksional tilshunoslik va matn lingvistikasi doirasida yordamchi so'zlarga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Xususan, bog'lovchi va ko'makchilarning diskursni tashkil etuvchi birliklar sifatidagi roli, ularning mantiqiy munosabatlarni ifodalashdagi ahamiyati tadqiq etilmoqda. Biroq bu izlanishlar ko'proq umumiy nutq doirasida olib borilib, ilmiy uslub doirasida maxsus tizimli tahlillar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yordamchi so'zlar grammatik va semantik jihatdan yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ularning ilmiy uslubdagi funksional-uslubiy xususiyatlarini kompleks tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, ilmiy matnda yordamchi so'zlarning mantiqiy va kommunikativ vazifalarini aniqlashni maqsad qilib qo'yadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda ilmiy matnlardan olingan materiallar asosida yordamchi so'zlarning qo'llanishi deskriptiv, kontekstual va semantik-stilistik tahlil metodlari yordamida o'rganildi. Tahlil jarayonida ularning ilmiy nutqdagi mantiqiy va izohiy vazifalari aniqlashtirildi.

¹⁷ Виноградов В.В. О языке художественной прозы. — М.: Наука, 1980.

¹⁸ Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. — М.: Едиториал УРСС, 2001 (klassik nashr).

¹⁹ Шведова Н.Ю. Русская грамматика. — М.: Наука, 1980.

²⁰ Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. — М.: Наука, 1981.

²¹ Karimov S. O'zbek tilining ilmiy uslubi. — Toshkent: Fan, 2002.

²² Nurmonov B. O'zbek tilining funksional uslublari. — Toshkent: O'qituvchi, 2008.

²³ Qo'ng'urov R Matn va uslub. — Toshkent: Fan, 1996.



Tahlil va natijalar (analysis and results). Yordamchi soʻzlar – bu asosiy maʼno soʻzlarini boyituvchi, gap va fikrlar oʻrtasida mantiqiy bogʻlanishni taʼminlovchi soʻzlar va qoʻshimchalardir. Ilmiy uslubda ular matnning izchilligi, tushunarli boʻlishi va dalillar bilan dalillanishini kuchaytiradi.

Bogʻlovchi— bu yordamchi soʻz turkumi boʻlib, u soʻzlar yoki gaplarni oʻzaro mantiqan bogʻlash vazifasini bajaradi. Bogʻlovchilar mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega emas, lekin gapning struktur va semantik aloqalarini belgilaydi. Tilshunoslikda yordamchi soʻzlar turkumiga bogʻlovchilar kiradi, chunki ular sintaktik aloqalarni koʻrsatadi — yaʼni gap boʻlaklarini va qoʻshma gaplarni bir-biriga bogʻlashga xizmat qiladi.

Gapning uyushiq boʻlaklarini va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni oʻzaro bogʻlash tarkibidagi sodda gaplarni oʻzaro bogʻlash uchun xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlarga uchun xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlarga bogʻlovchi deyiladi. bogʻlovchi deyiladi. Masalan: va, ammo, lekin, biroq, yo...yo, Masalan: va, ammo, lekin, biroq, yo...yo, ham...ham, dam...dam, goh...goh.

Bogʻlovchi soʻzlarning asosiy funksiyalari quyidagilar:

- Soʻz yoki soʻz birikmalarini bogʻlash
- Gap boʻlaklarini bir-biriga bogʻlash
- Bogʻlangan qoʻshma gaplarni hosil qilish gaplar tuzish

Fikr yoki hodisalar orasida munosabat ifodalash (shart, sabab, zidlik, natija va boshqalar). Bogʻlovchilar vazifasiga koʻra teng va ergashtiruvchi bogʻlovchilarga boʻlinadi. ergashtiruvchi bogʻlovchilarga boʻlinadi. Uyushiq boʻlaklar va oʻzaro teng Uyushiq boʻlaklar va oʻzaro teng munosabatdagi gaplarni bogʻlab keluvchi munosabatdagi gaplarni bogʻlab keluvchi bogʻlovchilar teng bogʻlovchilar hisoblanadi. bogʻlovchilar teng bogʻlovchilar hisoblanadi. Teng bogʻlovchilar uyushiq boʻlak va gaplarni Teng bogʻlovchilar uyushiq boʻlak va gaplarni bogʻlash bilan birga ular oʻrtasidagi mazmuniy bogʻlash bilan birga ular oʻrtasidagi mazmuniy munosabatni ham roʻyobga chiqaradi.

Shunga koʻra teng bogʻlovchilar quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

Biriktiruv bogʻlovchilari: va, hamda, bilan, ham.

SHunga koʻra teng bogʻlovchilar quyidagi guruhlarga boʻlinadi: Biriktiruv bogʻlovchilari: va, hamda, bilan, ham.

Ayiruv bogʻlovchilari: yoki, yo...yo, ham...ham, goh...goh, dam...dam, bir...bir.

Inkor bogʻlovchisi: na...na.

Oʻzbek tilshunosligida A.Muxtorov²⁵, M.Asqarova²⁶, S.Karimov²⁷, R. Qoʻngʻurov²⁸, A. Madvaliyev, Sh. Rahmatullayev²⁹ va U. Tursunovo kabi olimlar bogʻlovchi soʻz turkumi mavzusida ilmiy ishlar qilishgan.

²⁵ Muxtorov A. Oʻzbek adabiy tili tarixi / A. Muxtorov. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1995.

²⁶ Oʻzbek tilida bogʻlovchi-yuklamalar haqida, Oʻzbek tili va adabiyoti, 1962, 5-son.

²⁷ Oʻzbek tilining ilmiy uslubi, Toshkent, 2002.

²⁸ Qoʻngʻurov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. Toshkent: Oʻqituvchi, 1990.

²⁹ Hozirgi oʻzbek adabiy tili (birgalikda U. Tursunov va J. Muxtorov bilan)





Ot, olmosh, sifatdosh va harakat nomidan keyin kelib ularni hokim so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi, so'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan bilan, uchun, singari, sari, sayin, orqali kabi yordamchi so'zlar ko'makchilar deyiladi.

Ko'makchilar vazifasiga ko'ra kelishiklarga o'xshaydi. Masalan, onam bilan bormoq, ukam uchun olmoq, ustozim kabi bo'lmoq, kun sayin ortmoq, orzular sari intilmoq, telefon orqali gaplashmoq, u haqida so'ramoq, futbol haqida gapirmoq.

Ko'makchilar o'zidan oldingi so'zing tarkibiy qismi sanaladi, shuning uchun u bilan birga bitta so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, akam uchun – kim uchun?

Ko'makchilar tarixan mustaqil so'z bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatik ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir.

Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi:

1) sof (asl) ko'makchilar – atash (leksik, lug'aviy) ma'nosini tamomila yo'qotib, faqat grammatik ma'no ifodalashga o'tgan, ya'ni o'zi birikkan so'zni hokim so'zga tobelantirib bog'lashga xizmat qiladigan ko'makchilar: bilan(bila, ila(eski), uchun, sari, sayin, qadar, yanglig', singari, kabi, haqida, xususida, uzra, tariqa, asnoda, binoan, holda, zayilda kabi so'zlar sof ko'makchilardir. Masalan: Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la bezamoq chog'idir umr daftarin. (G'afur G'ulom) . Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher. (A. Oripov). Yuz bergan tabiiy ofat tufayli uyimizning hamma yog'i buzilib-yorilib ketib, yashash uchun mutlaqo yaroqsiz holga kelib qolgandi. (M. Qoriyev). Bahor kelinchak singari go'zal. Ish shu tariqa(zayilda) davom etdi. Boshimiz uzra ozodlik quyoshi porlaydi.

2) vazifadosh ko'makchilar – asli mustaqil so'z bo'lib, ba'zan mustaqil ma'nosini yo'qotib, tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladigan so'zlar³⁰.

Leksik ma'nosini saqlagan holda gapda grammatik ma'no ifodalash vazifasini bajaruvchi so'zlar vazifadosh ko'makchilar deyiladi (Ak.lit).

Vazifadosh ko'makchilar ko'makchilashayotgan ot va fe'llardir.

Ost: Elektr dvigatel kuchli bosim ostida ishlaydigan mukammal qurilmadir(“Yosh fizik” portali)

Ust:Ish ustida har narsa bo'lishi mumkin.

Ich: Oxund-xalq ichida uyg'urlarga, qashqarliklarga qo'yilgan laqab(Izohli lug`at).

Old: Agar inson eng birinchi vijdoni oldida hisobdor bo'lmasa, har bir amalida toyiladi.(Husnora Akbarova)

Ora: Bu kungi besh daqiqa orasida bo'lib o'tgan voqeani Otabek hech bir yo'sin bilan miyasiga sig'dira olmas edi.(A.Qodiriy)

Bo'ylab: Ertalabki shamol bu qog'ozlarni cho'l bo'ylab uchira boshladi.(S.Ahmad)

Tomon: Ammo olamshumul bu kashfiyot ilmiy kengash tomonidan yetarli baholanmaganga o'xshaydi.

³⁰ N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedov-mumiy o'rta ta'lim makatblarining 7-sinfi uchun darslik -Toshkent «Ma'naviyat» 2017



Qosh: Tarix kafedrasi qoshida tashkil etilgan "Kitobxonlik" klubining navbatdagi ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvi tashkil etildi.

Ko'ra: Uning ko'zlari ko'ra^{mus.so'z} boshladi. – Mashqni qoidaga ko'ra^{vaz.ko'm} bajardi.

Deb: Bunday holda agar elektr rozetkasi buzilgan bo'lsa, tosterni boshqa rozetkaga ulash muammoni hal qilishi mumkin deb taxmin qila olamiz.

Atab: Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlarida ko'proq xalqona ruh sezilib turadi. (V.Yo'ldoshev)

Oldin, avval, keyin, so'ng: Tajribadan oldin kerakli jihozlarning holatini tekshirish talab qilinadi. ("Fizika" 7-sinf³¹)

So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalar yuklamalar deyiladi. Masalan: Bahor keldimi? (-mi yuklamasi bahor keldi degan darak gapga so'roq mazmunini yukladi). Gulnora ham keldi (ham yuklamasi egaga ya'ni Gulnora bo'lagiga ta'kid ma'nosini yukladi).

Yuklamalar ikki xil ko'rinishda bo'ladi:

-so'z yuklamalar: axir, hatto, nahotki, xolos, ham, faqat, na...na.

-qo'shimcha yuklamalar: -mi, -chi, -a(-ya), -u(-yu), -ku, -da, -oq(-yoq), -gina, -dir, -la.

Yuklamalarning quyidagi ma'noviy turlari bor:

1. so'roq-taajub yuklamalari – gaplarga so'roq-taajub ma'nosini yuklaydi. Ular:

-mi, -chi, -a(-ya) (bu yuklamalar ko'rinish jihatdan qo'shimcha yuklama hisoblanadi va ular sof yuklamalardir). -mi yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. -chi, -a(-ya) yuklamalari esa chiziqli bilan ajratib yoziladi. Masalan:

– Bizning qishloqdan ham ma'lumot borgan ekan-da, a? – dedi. (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.)

2. Ayiruv-chegaralov yuklamalari – o'zi qo'shilayotgan so'zning ma'nosini ayirib, chegaralab keladi. Ularga: faqat, atigi (atiga), xolos (yuqoridagi bu yuklamalar so'z va sof yuklamalar hisoblanadi), yolg'iz (bu yuklama esa so'z yuklama va vazifadosh yuklama hisoblanadi (sifat vazifasida ham keladi)), -gina(-kina, qina) (bu yuklama esa qo'shimcha va vazifadosh yuklama hisoblanadi (erkalash shakli)).

Masalan: Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun sevgan farzanding bo'lsa, kechirma aslo. Bugun faqat Umid kelmadi. O'qituvchi bu savolga javob bermadi, kulib qo'ydi, xolos. Mening atiga bitta kitobim bor. Majlisga mening onamgina (faqat) kelmadi.

3. Kuchaytiruv- ta'kid yuklamalari – gapning ma'lum bir bo'lagini yoki butun gap ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab keluvchi yuklamalar. Ularga: hatto, nahotki, g'irt, axir (bu yuklamalar so'z va sof yuklamalari hisoblanadi), ham (bu yuklama so'z yuklama va vazifadosh (bog'lovchi vazifasida ham keladi) hisoblanadi). -ku, -oq(-yoq), -la (bu yuklamalar qo'shimcha yuklama va sof yuklamalar hisoblanadi), -u(-yu), -da (bu yuklamalar qo'shimcha yuklama va vazifadosh (bog'lovchi vazifasida ham keladi) yuklamalar hisoblanadi).

³¹ Karimov A. Fizika. 7-sinf uchun darslik. — Toshkent: O'qituvchi, 2022. — 45-bet.



-ku, -u(-yu), -la, -da yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: aytdim-ku, bordi-yu, kelib-la ketdi, oydan-da go'zal.

-oq(-yoq) qo'shib yoziladi: borib-oq, o'ziyoq

4. Gumon yuklamasi – gap mazmuniga gumon ma'nosini yuklaydigan -dir qo'shimchasi.

* -dir qo'shimcha yuklama bo'lib, ot-kesim tarkibida keladigan -man, -san, -miz, -siz bog'lamalari qatorida turuvchi -dir bog'lamasi bilan shakldosh(omonim). Urug'ingdir, aymog'ingdir, Biror og'zi maymog'ingdir^{yuklama}. Farzand uchun jonin fido qiladir, onadir – u, onadir – u, onadir^{bog'lama}.

5) O'xshatish-qiyoslash yuklamalari – so'z yoki gaplarga o'xshatish-qiyoslash ma'nosini yuklovchi xuddi, go'yo, go'yoki, naq so'zlari o'xshatish-qiyoslash yuklamalari hisoblanadi.

* naq – sof yuklama.

xuddi, go'yo, go'yoki – vazifadosh yuklama, chunki ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida ham keladi.

M: Tog'laring tegrangda go'yo^{yuklama}

Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu...

Tog'lardagi qip-qizil lola

Bo'lib go'yo^{yuklama} yoqut piyola...

Inkor yuklamalari – gap mazmunidagi inkor ma'nosini uqtiruvchi yuklamalar.

Ular: na...,na (vazifadosh, chunki bog'lovchi vazifasida ham keladi), hech, sira, aslo (sof)

M: To'rt mucham sog', do'stlarim bor havas qilgulik, Nolimayman na^{yuklama} kelajak, na^{yuklama} o'tmishimdan.Havo bulutli bo'ldi, lekin na^{bog'lovchi} yomg'ir yog'di, na^{bog'lovchi} qor yog'di.Yurmasman hech^{yuklama} behishtni izlab,

Topolmasam chekmasman alam...

Uning gaplariga sira tushunmadim.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation). Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, yordamchi so'zlar ilmiy uslub matnlarida nafaqat grammatik vosita, balki mantiqiy bog'lanish, fikrlar uzluksizligi va matn strukturasi shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yordamchi so'zlar turli funksiyalarni bajaradi: gaplararo bog'lanishni ko'rsatish, izoh berish, qarama-qarshi yoki sabab-natija munosabatlarini ifodalash. Ilmiy matnlarda ularning noto'g'ri ishlatilishi matnning mantiqiy uyg'unligini buzishi va fikrlarning noaniqligiga olib kelishi mumkin.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

-Ilmiy matn yozishda yordamchi so'zlarning turkum va funktsional tavsifini hisobga olish, ularni kontekstga mos ishlatish tavsiya etiladi.



-Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlarida talabalar va tadqiqotchilarga yordamchi so'zlarning vazifalari va qo'llanilishi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar kiritilishi lozim.

-Kelgusidagi tadqiqotlar yordamchi so'zlarning ilmiy va badiiy matnlarda farqlanishini, ularning stilistik funksiyalarini chuqurroq tahlil qilishga qaratilishi kerak.

-O'zbek tilida ilmiy matnlarni tayyorlashda yordamchi so'zlarning to'g'ri qo'llanilishi bo'yicha normativ qo'llanmalar ishlab chiqilishi foydali bo'ladi.

Резюме

В статье рассматривается использование вспомогательных слов в научном стиле узбекского языка. Проанализированы их грамматические функции, логические связи между предложениями и роль в обеспечении связности текста. Показано, что вспомогательные слова выполняют различные функции, включая указание отношений, разъяснение и выражение причинно-следственных или противопоставительных связей. Исследование подчёркивает важность правильного употребления вспомогательных слов для сохранения ясности и целостности научного текста. Полученные результаты имеют значение для совершенствования научного письма, методики преподавания и подготовки академических текстов на узбекском языке

Resume

This article examines the use of auxiliary words in the scientific style of the Uzbek language.

The study analyzes their grammatical functions, logical connections between sentences, and their role in ensuring textual coherence.

It is shown that auxiliary words perform various functions, including indicating relationships, providing clarification, and expressing cause-effect or contrastive relations.

The research highlights the importance of correct usage of auxiliary words for maintaining clarity and cohesion in scientific texts.

The findings are relevant for improving scientific writing, teaching methodology, and the preparation of academic texts in Uzbek.